



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th June - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

EKSPERTIZA TEKSHIRUVINING AYRIM KRIMINALISTIK JIHATLARI

Qirg'izboyev Ma'rufjon Odiljon o'g'li
Namangan Viloyati Ichki Ishlar Boshqarmasi
Uchqo'rg'on tuman Ichki Ishlar bo'limi

Annotation

Ekspertiza tekshiruvi uchun namunalar olishning asosini namuna, ya'ni tadqiqot obyekti tashkil qiladi. Ushbu obyektlarning xususiyatini bilish va uning o'zgarish xususiyatlari, jinoyat sodir etilgan joyda qayerlardan topish lozimligini bilish ekspertiza tekshiruvi uchun namunalar olish tizimini sifatjihatdan takomiliga sabab bo'ladi.

Kalit so'zlar: Ekspertiza, sud, jinoyat, metod, namuna.

KIRISH

Ekspertiza obyekti atamasi ko'pqirra bo'lib, u muhim amaliy va nazariy ahamiyatga ega. Chunonchi, ekspertiza tadqiqot obyektlari uning kriminalistik turlarini belgilab berishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi hamda ekspertiza tadqiqotining muvaffaqiyatli yakunlanishiga ko'p jihatdan ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, ekspertning bilim sohasi qo'yilgan savollarni hal qilish uchun tadqiqot obyektini o'rganish xususiyati bilan belgilanadi.

ASOSIY QISM

O'zbek tilining izohli lug'atida qayd etilganidek, "obyekt (lot. "objectum" – "narsa") – kishi faoliyati, diqqat e'tibori qaratilgan hodisa, narsa" hisoblanadi. Demak, ekspertiza tadqiqoti obyekti deganda, ekspertiza tekshiruvida tadqiq etiladigan narsalar tushuniladi [1].

Ekspertiza tadqiqot obyektining o'ziga xos jihat shundaki, u ekspertizani tayinlagan vakolatli shaxslar tomonidan taqdim etiladi.

Ekspertga taqdim etiladigan ish materiallari shartli ravishda quyidagi uchtoifaga bo'lish mumkin: a) ashyoviy dalillar, ularning nusxalari aniqlangan joy, ularni qayd qilish usuli va olinishi bilan bog'liq materiallar; b) ekspertizani tayinlash to'g'risidagi qaror (ajrim)ga kiritilgan dastlabki ma'lumotlar sifatidagi materiallar; v) ekspert tekshiruvining asosiy obyektibo'lgan materiallar.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th June - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Dastlabki tergov davomida o'tkazilgan ekspertizani baholashda bunday materiallarning ishonchlilagini, ya'ni ularning kelib chiqish manbai va ularga kiritilgan ma'lumotlarning ishonchlilagini aniqlash lozim.

Shu o'rinda "ekspertiza predmeti" va "ekspertizasi obyekti" kabi tushunchalarni farqlash joiz. Ilmiy adabiyotlarda "ekspertiza obyektini o'rnatilgan faktlarni tadqiq qilinayotgan holat bilan bog'liqligi tashkil qiladi" deyiladi. Ekspertiza jarayonida ekspert ekspertiza obyekti dalil sifatida ishga qo'shilganligidan qat'i nazar uning protsessual-huquqiy tabiatini emas, balki identifikatsiya, diagnostika qilinishini va boshqa moddiyobyektlarning munosabatini tadqiq qiladi. Obyektning protsessual huquqiy tabiatini, shu bilan birga ekspert xulosasini ham tadqiq qilish ekspertning emas, balki tergov (sud) organining funksiyasi hisoblanadi.

Daliliy ashyo hisoblangan predmet va hujjatlar turli mutaxassislikdagi ekspertlar tadqiqotining obyekti bo'lishi mumkin. Masalan, buxgalteriya hujjati haqiqiyligiga shubha tug'ilsa, u buxgalteriya ekspertizasi va ayni damda xatshunoslik ekspertizasining obyekti bo'lishi mumkin.

Yuridik adabiyotlarda ekspertiza obyektini tasniflash borasida turli nuqtai nazarlar shakllangan. Xususan, D.Ya.Mirskiy ekspertiza obyektlarini ikki asosga qarab tasniflaydi: 1) protsessual tabiatiga (daliliy ahamiyatiga); 2) ashyoviy tabiatiga (ular xususiyati) ko'ra. T.P.Averyanova esa ekspertiza obyektlarini identifikatsiya qiluvchi va qilinuvchi kabi turlarini ko'rsatadi [3].

Yuqoridagilar bilan bir qatorda ekspertiza obyektlarini uch guruhga ajratish mumkin: asosiy obyekt (jinoyat hodisasi bilan bog'liq daliliy ashyolar), qiyosiy materiallar (qiyosiy tadqiqot uchun olingan namunalar), ma'lumot beruvchimateriallar (ekspertiza predmetiga tegishli axborot tusidagi ma'lumotlarni o'zida aks ettiruvchi narsalar bo'lib, ular ekspertiza uchun ma'lumotlar manbasi bo'lib xizmat qiladi, ularga protsessual hujjatlar, xususan, so'roq bayonnomasi, olib qo'yish, tintuv hujjatlari kiradi).

M.N. Rostovning fikricha, sud-tergov amaliyotida ekspertiza tadqiqoti obyektlari umumiyligi, turdoshligi, aniqligi va bevosita kabi turlarga bo'linadi. Biz ham ekspertiza obyektini shu tarzda tasniflashni taklif etgan mualliflar fikrini qo'llab-quvvatlagan holda ularga qisqacha to'xtalib o'tsak:

- 1) **umumiyligi obyekt** – barcha ma'lumot manbalari hisoblangan tushunchalar bo'lib, unga "moddiy dunyo obyektlari (ashyolari) kirib, ular maxsus bilimlarga asoslangan holda ekspertga faktlarni o'rnatishga xizmat qiladi".



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th June - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

- 2) **turdosh obyekt** – o‘zining xususiyatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, ma’lumot tashuvchi kategoriya bo‘lib, ma’lum bir guruhni ifodalovchi tushunchalardan iborat bo‘ladi. Turdosh obyekt “ma’lum bir guruh narsalar haqida ma’lumot beruvchi va ularni ma’lum bir guruhlarga birlashtiruvchi obyektdir”.
- 3) **aniq obyekt** – ma’lum bir jinoyat holati yuzasidan ekspertga yuborilgan ma’lumot tashuvchi manbadir. Aniq predmet bu ekspertga yuborilgan va tergovchi ekspertiza tayinlashi orqali yuborgan va xulosa chiqarilishi lozim bo‘lgan ashyo hisoblanadi. Bu mavhum tushuncha emas, balki daliliy ahamiyatga ega bo‘lgan ashyoaniq obyektga kirishini tushunishimiz lozim.
- 4) **bevosita obyekt** – aniq obyektning bir qismi bo‘lib, u ekspert oldiga qo‘yilgan savollarda aks etgan bo‘ladi. Ekspertiza tadqiqoti jarayonida tadqiq qilinayotgan obyekt bunga misol bo‘la oladi.

XULOSA VA MUNOZARA

Ekspertiza tadqiqotining obyekti yana protsessual shakl jahatidan ham farqlanadi. Mazkur mezon asosida tasniflashda shakl ekspertiza obyektlarining barcha turlariga daxldor bo‘ladi. Ular birinchidan, protsessual tabiatiga ko‘ra ekspertiza obyekti va ashyoviy tabiatiga ko‘ra turlarga bo‘linadi. Protsessual tabiatga ega obyektga tergov va sud tergovi jarayonida aniqlangan protsessual holatlar, ya’ni o‘zidan o‘zi ko‘rinib turgan ashyolar emas, balki ekspertiza natijasida aniqlangan holatlar (daktiloskopik, trassologik izlar) kirsa, ashyoviy tabiatga ega obyektga aniq jinoyat sodir etilgan joyda mavjud bo‘lgan vajinoyatga daxldor ekanligiga shubha bo‘lmagan obyektlar kiradi. JPKning 175-moddasiga ko‘ra ashyoviy dalillar ekspert tekshiruviga uchun namunalar, boshqa moddiy obyektlar, murdalar va ularning qismlari, hujjatlar, shuningdek ekspertiza o‘tkazilayotgan ish materiallari tekshirish obyektlari bo‘lishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati / A.Madvaliev tahriri ostida. T.2. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – B. 77.
2. Smirnova S.A. 21-asr boshidagi sud-tibbiyot ekspertizasi. Holati, rivojlanishi, muammolari. 2-nashr, qayta ko‘rib chiqilgan va kengaytirilgan. – Sankt-Peterburg: Pyotr, 2014. – b. 659.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th June - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

3. Averyanova T.V. Yangi sud-tibbiyot usullarining manbalari va asoslari sifatida ilmiy bilimlarning integratsiyasi va differentsiatsiyasi. – M.: Rossiya Ichki ishlar vazirligi akademiyasi, 2014. – b. 85.
4. Kirsanov Z.I. Jinoyat ishining holatlarini aniqlashda ekspert va mutaxassisning vazifalari // Rossiya Ichki ishlar vazirligi Boshqaruв akademiyasining axborot byulleteni. – Moskva, 2018. – No 6. – b. 5.
5. Vinberg A.I. Jinoyat protsessida dalillar nazariyasi. – M.: Gosyurizdat, 2013. – B. 648-649; Mirskiy D.Ya. Rostov M.N. Sud ekspertizasi ob'ektining guvohlari // Sat. ilmiy ishlaydi “Sud ekspertizasining nazariy va uslubiy masalalari” mavzusida. – M.: VNIISE, 2014. – B. 30.
6. T.B.Mamatqulov. Hujjatlarning texnikkriminalistik ekspertizasi. Ma’ruzalar kursi. O‘zbekiston respublikasi ichki ishlar vazirligi. Akademiya. Toshkent – 2017.